

RUHIY RIVOJLANISHI SUSTLASHGAN BOLALAR NUTQINING LEKSIK JIHATLARINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI TEKNOLOGIYALARI

Raxmonberdiyeva Xosiyatxon Murodjon qizi

QDU Maxsus pedagogika (logopediya) 2-bosqich Magistr

Anotatsiya: *Quyida ruhiy rivojlanishi sekinlashgan bolalarning nutqidagi leksik tomonlarini rivojlantirish masalasi ilmiy va nazariy, shuningdek amaliy jihatdan ko'rib chiqildi. Tadqiqot jarayonida bunday bolalarda so'z boyligini oshirish, semantik tuzilmani shakllantirish hamda muloqot ishini jonlantirishning foydali usullarini o'rganib chiqdik. O'yin texnologiyalari, interaktiv mashg'ulotlar, ko'p media vositalari va nutq terapiyasi yondashuvlarini birlashtirish orqali yaxshi natijalarga erishdik. Bundan tashqari, maqolada psixolingvistik va pedagogik qoidalarni uyg'unlashtirgan o'quv jarayonining samarasi ilmiy dalillar bilan asoslandi. Tadqiqot xulosalari ruhiy rivojlanishi sekinlashgan bolalarda lug'at boyligi va nutq faolligini ko'tarishda zamonaviy texnologiyalarning katta ahamiyati borligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *ruhiy rivojlanish, leksik tizim, so'z boyligi, interaktiv texnologiyalar, nutq terapiyasi yondashuvi, inklyuziv ta'lim.*

ЭФФЕКТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ЛЕКСИЧЕСКОГО СОСТАВА РЕЧИ У ДЕТЕЙ С ЗАДЕРЖКОЙ ПСИХИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

Рахмонбердиева Хосиятхан Муроджон кизи

ЧГУ Специальная педагогика (Логопедия) второй курс Магистратура

Ниже рассматривается вопрос развития лексической составляющей речи детей с задержкой психического развития с научно-теоретической и практической точек зрения. В ходе исследования были изучены эффективные методы увеличения словарного запаса, формирования семантической структуры речи и активизации коммуникативной деятельности у таких детей. Хороших результатов удалось добиться, сочетая игровые технологии, интерактивные занятия, мультимедийные средства и логопедические подходы. Кроме того, в статье обоснована эффективность образовательного процесса, сочетающего психолингвистические и педагогические принципы, с научными доказательствами. Выводы исследования свидетельствуют о большой значимости современных технологий в увеличении словарного запаса и речевой активности детей с задержкой психического развития.

Ключевые слова: психическое развитие, лексическая система, словарный запас, интерактивные технологии, логопедический подход, инклюзивное образование.

EFFECTIVE TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING LEXICAL ASPECTS OF SPEECH IN CHILDREN WITH MENTAL DELAYS

Rakhmonberdiyeva Khosiyatkhan Murodjon kizi

QSU Special Pedagogy (Speech Therapy) 2nd year Master

Below, the issue of developing the lexical aspects of the speech of children with mental retardation was considered from a scientific and theoretical, as well as practical, perspective. In the course of the research, we studied useful methods for increasing vocabulary, forming a semantic structure, and revitalizing communication work in such children. We achieved good results by combining game technologies, interactive classes, multimedia tools, and speech therapy approaches. In addition, the article substantiated the effectiveness of the educational process, which combines psycholinguistic and pedagogical principles, with scientific evidence. The conclusions of the study indicate the great importance of modern technologies in increasing vocabulary and speech activity in children with mental retardation.

Keywords: *mental development, lexical system, vocabulary, interactive technologies, speech therapy approach, inclusive education.*

Kirish

O'quvchilar orasida ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar ham uchrab turishi ko'plab uchratish mumkin bolgan holatlardan biri hisoblanadi. Ularning bilish faoliyati- intellekti mantiqiy tafakkuri, idroki, xotirasi, ixtiyoriy diqqati, ish qobiliyati va boshqa xislatlariga birinchi o'rinda markaziy nerv sistemasining kasalliklari natijasida ruhiy rivojlanishi sustlashadi. Bunday bolalarda hissiyot, iroda sferasidagi kamchiliklar birlamchi, aqliy rivojlanishni orqada qolishi esa ikkilamchi hodisa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860- son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi.¹¹

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar (RRSB) – bu umumiy aqliy rivojlanish sur'ati yoshiga mos kelmaydigan, lekin oligofreniyaga ega bo'lmagan bolalar guruhidir. Ular asosan xotira sustligi, nutqiy rivojlanishdagi orqada qolish, ijtimoiy moslashuv muammolari, mustaqil qaror qabul qilishdagi qiyinchiliklar bilan ajralib turadi. RRSBning asosiy sabablari turlicha bo'lib, ular orasida tug'ma va orttirilgan omillar mavjud.¹² Tug'ma omillarga genetik moyillik, homiladorlik davrida onaning salomatligidagi muammolar kiradi. Orttilgan omillar esa bolaning erta yoshdagi bosh miya jarohatlari, stress holatlari va yetarli pedagogik sharoit mavjud emasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ushbu tadqiqotda aqliy rivojlanishi sekinlashgan bolalarning nutqidagi lug'at qismlarini yaxshilash uchun foydali usullarni o'rganishni asosiy maqsad qilindi. Hozirgi vaqtda inklyuziv ta'lim tizimi keng tarqalayotgan sharoitda nutqida muammo bo'lgan bolalarga shaxsiy yondashuvni ta'minlash haqiqatan ham zarur. Bu jarayon faqat tilshunoslik bilimlari bilan cheklanmaydi. U psixologik, tarbiyaviy va muloqotga oid yondashuvlar bilan ham mustahkamlanadi.¹³ Shuning uchun biz nutq rivojlanishidagi sekinlikni bartaraf etishda yangi texnologiyalarni qo'llashga alohida e'tibor berdik. Kuzatilgan bolalar orasida so'z boyligining kamligi, ma'noiy bog'lanishlarni o'rnatishda qiyinchilik va suhbatdagi passivlik holatlari tez-tez uchraydi. Shu tufayli tadqiqot davomida nutqiy faoliyatni shakllantiruvchi mashqlar tizimini yaratishga harakat qildik. Tizim har bir bolaning o'ziga xos qobiliyatlarini hisobga olgan holda tuzildi. Bundan tashqari, o'quvchilarning ruhiy rivojlanish darajasiga mos keladigan interaktiv va ko'zga ko'rinadigan usullardan ko'p foydalanildi.

Bizning asosiy maqsadimiz aqliy rivojlanishi sekinlashgan bolalarda so'z boyligini kengaytirish edi. Ularning nutqiy fikrlashini faollashtirish va muloqot qobiliyatini mustahkamlash ham shu maqsadga kiradi. Biz bu masalada o'yin usullari, nutq terapiyasi mashqlari, interaktiv dars vositalari va ko'p media materiallarining samaradorligini sinab ko'rdik. Tadqiqot jarayonida olingan natijalar bu usullarning chinakam ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.¹⁴

Asosiy qism.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ushbu bolalarning rivojlanish xususiyatlarini aniqlashda L.S.

¹¹ <https://lex.uz/uz/docs/-5679836>

¹² RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR DIAGNOSTIKASI "Maxsus ta'lim metodikalari" kafedrasida P.f.n. dots. D.A.Nurkeldiyeva katta o'qituvchi M.U.Hamidova

¹³ Po'latxo'jayeva M.R. Defektologiyaning klinik asoslari-T. 2012 yil

¹⁴ "Maxsus pedagogika" P.M. Po'latova, L.Sh. Nurmuxamedova, D.B. Yakubjonova, Z.N. Mamarajabova, Sh.M. Amirsaidova, A.D. Sultanova.

Vygotskiy, A.R. Luriya, N.N. Traugott kabi olimlarning ma'lumotlariga ko'ra boshlangich sinf o'quvchilarining 5, 8 foizini ana shunday bolalar tashkil etadi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida mamlakatimiz defektologlari ishlarida ham bu masalaning turli tomonlari e'tiborga olinadi.

- L.S. Vygotskiy – u ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning rivojlanishi atrof-muhit va ijtimoiy omillarga bog'liq ekanligini ta'kidlagan.
- A.R. Luriya – bolalarning psixologik va neyropsixologik xususiyatlarini tadqiq qilgan, RRSB da diqqat va xotira jarayonlarining sustligini o'rgangan.
- N.N. Traugott – bolalarning nutqiy rivojlanish buzilishlarini tahlil qilib, maxsus pedagogik yondashuvlarni taklif qilgan.¹⁵

Tajriba davomida 6 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan aqliy rivojlanishi sekinlashgan bolalar kuzatuv ostiga olindi va avval ularning lug'at boyligini aniqlash uchun diagnostik so'rovlar, testlar va suhbat usullaridan foydalanildi. Natijada bolalarning 70 foizida passiv lug'at hajmi faol lug'atdan 2 yoki 3 marta ko'p bo'lgan. Shu sababli faol lug'atni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tizimini ishlab chiqdik. Har bir darsda bolalarga yangi so'zlarni haqiqiy holatlarda qo'llash uchun rolli o'yinlar, hikoya yaratish va rasmga asoslangan so'z tanlash mashqlari nutqiy faollikni oshishiga hizmat qildi.¹⁶ Shu bilan birga vizual yordamchilar, belgilash rasmlari va interaktiv doskalardan foydalanib bolalarning e'tiborini tortishga muvaffaq bo'ldik.

Xullas o'yin asosidagi ta'lim bolalarning qiziqishini kuchayishiga hamda ularni tabiiy suhbatga kirishishlariga zamin bolib xizmat qiladi. Bizning mashg'ulotlarimizda Men kimman, So'z top va Hikoyani davom ettir kabi o'yinlar nutqiy faollikni oshirishda juda yaxshi ish berdi. Bu jarayonda bolalar yangi so'zlarni nafaqat o'zlashtiribgina qolmay ularni ma'noga mos holda ishlatishni ham o'rgandilar.

Usullar.

Bola tarbiyasi bilan mutlaqo shug'ullanmaslik, uni butunlay o'z holiga tashlab qoyish holatlarida bolalarda burch va mas'uliyat hissi shakllanmay qoladi. Aql-idrokning rivojlanishi, qiziqishlari, bilish faoliyati, his-tuyg'u va iroda yetishmasligi ustiga o'quv fanlarini o'zlashtirish uchun zarur bilim va taassurotlarning yetishmasligi ham qo'shiladi.

Ruhan sust rivojlanganlikning psixogen shaklida aql-idrok bilish faoliyatiga aloqador kamchiliklarga aksari noto'g'ri tarbiya natijasida paydo boigan xislatlar ham qo'shib pirovard natijasida shaxsning rivojlanishi izdan chiqadi, unda patologik xislatlar yuzaga keladi. Ana shunday bolalami pedagogik qarovsiz bolalardan ajrata olish lozim. Pedagogik qarovsiz bolalarning psixikasi normal bo'lib, ular noto'g'ri

¹⁵ Vygotskiy L.S. (1983). Psikhologiya razvitiya rebenka. Moskva: Pedagogika.

¹⁶ "Maxsus pedagogika" P.M. Po'latova, L.Sh. Nurmuxamedova, D.B. Yakubjonova, Z.N. Mamarajabova, Sh.M. Amirsaidova, A.D. Sultanova.

tarbiyalanganligi natijasida ulgurmovchi o'quvchilar qatoriga o'tib qoladilar.¹⁷ Ruhiy sust rivojlanishning serebral shakli miya shikastlari, meningit, meningoensefalit, gidrotsefaliya va boshqa kasalliklar natijasi hisoblanadi.

Qo'llagan usullar psixolingvistik va o'quv tamoyillariga asoslangan, yani birinchi bosqichda so'z boyligini kengaytirish uchun assotsiativ kartalar usulidan foydalanib, bolalar yangi so'zlarni rang, narsa yoki harakat bilan bog'lab yaxshiroq eslab qolishdi. Ikkinchi bosqichda so'zlarning ma'noiy maydonini kengaytirish uchun so'z zanjiri mashqlarini boshladik. Bu mashqlar orqali bolalar mantiqiy bog'lanishlarni shakllantirishni o'rgandilar.

Natijalar.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar nutqi normal bolalarga nisbatan rivojlanish, shakllanish nuqtayi-nazaridan birmuncha orqada qoladi. Ularda turli talaffuz kamchiliklari uchrab turadi. Tovushlar talaffuzining buzilishi, tovush obrazlarining yetarli shakllanmaganligi yozish va o'qishda xatolarga yo'l qo'yishga olib keladi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar lug'at boyligi birmuncha cheklangan bo'lib, aktiv lug'ati yetarli rivojlanmagan bo'ladi.

Bundan tashqari axborot va kommunikatsiya texnologiyalari asosidagi darslardan ko'p foydalanildi. Ko'p media dasturlari yordamida bolalar tovush, rasm va so'z o'rtasidagi bog'lanishlarni yaxshiroq anglab dars jarayonida LearningApps va Wordwall kabi interaktiv platformalarni samarali qo'llagan holda so'z eslab qolish darajasi 40 foizga ko'tarilishiga erishdik.¹⁸

Shaxsiy tajribamda shuni tushundimki, nutqiy rivojlanish faqat so'z yodlash bilan bo'lmaydi, balki ularni kundalik hayotda qo'llash orqali mustahkamlanadi. O'quv jarayonida nutqiy faollikni rag'batlantirishning yangi usullarini ishlab chiqdik. Bu natijalarni yaxshiladi.

Muhokama.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqida deyarli so'z turkumlaridan ot va sifat uchramaydi, yani bolalardagi nutqning shakllanish muddati bog'cha yoshida tugamasdan, boshlang'ich sinflar davrida ham davom etadi. Bolalar nutqida grammatik qoidalar deyarli ishlatilmaydi. Grammatik tushunchalar differensiatsiya qilinmaydi. Ko'p hollarda ular "harf-tovush", "bo'g'in so'zlari chalkashtirib yuboradilar ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilarning shaxsiy sifatlari maxsus psixologiyada yetarli o'rganilmagan. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilarning qiziqishlari bog'cha yoshidagi bolalar qiziqishga o'xshab ketadi. Shuning uchun o'yin ular uchun asosiy faoliyat rolini o'ynaydi.

¹⁷ Po'latxo'jayeva M.R. Defektologiyaning klinik asoslari-T. 2012 yil

¹⁸ RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR DIAGNOSTIKASI "Maxsus ta'lim metodikalari" kafedrası P.f.n. dots. D.A.Nurkeldiyeva katta o'qituvchi M.U.Hamidova

Bizning tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aqliy rivojlanishi sekinlashgan bolalarda nutqiy rivojlanishning kechikishi tizimli va to'liq yondashuvni talab etadi. Shu tufayli psixolog, nutq terapevti va sinf o'qituvchisi o'rtasidagi hamkorlikni muhim deb hisobladik. Har bir mutaxassis o'z sohasida bola nutqini qo'llab quvvatlovchi muhit yaratishda qatnashishi kerak.

Bundan tashqari o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish orqali darslarda yangi usullarni ko'proq qo'llash zarurligini aniqladik. Ishonamizki, bu yo'nalishda yaratilgan ilmiy va metodik tizimlar kelajakda inklyuziv ta'limda katta o'rin egallaydi.

Xulosa.

Xulosada shuni aytishimiz mumkinki ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar umumiy aqliy rivojlanish sur'atining yoshiga mos kelmasligi bilan tavsiflanadi. Ularning kognitiv, nutqiy, hissiy va ijtimoiy rivojlanishidagi muammolar individual yondashuv va maxsus pedagogik metodlarni talab qiladi. Ushbu bolalar diqqatni uzoq vaqt jamlay olmasligi, tafakkur jarayonlarining sustligi, leksik zaxiraning cheklanganligi va ijtimoiy moslashuv muammolari bilan ajralib turadi. Tadqiqotimiz o'zining dolzarbligi shundaki maqolada nafaqat tilshunoslik, balki tarbiyaviy va psixologik masalalarni ham qamrab olishga harakat qildik. Aqliy rivojlanishi sekinlashgan bolalar uchun yaxshi ta'lim muhitini yaratish yo'llarini izlashda muhim qadam ekani ham mubolag'a emas. Shu sababli bu ish ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Maxsus pedagogika" P.M. Po'latova, L.Sh. Nurmuxamedova, D.B. Yakubjonova, Z.N. Mamarajabova, Sh.M. Amirsaidova, A.D. Sultanova.
2. Po'latxo'jayeva M.R. Defektologiyaning klinik asoslari-T. 2012 yil
3. RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR DIAGNOSTIKASI "Maxsus ta'lim metodikalari" kafedrası P.f.n. dots. D.A.Nurkeldiyeva katta o'qituvchi M.U.Hamidova
4. Vygotskiy L.S. (1983). Psikhologiya razvitiya rebenka. Moskva: Pedagogika.
5. <https://lex.uz/uz/docs/-5679836>